

**POMIDORNING SHTAMBSIMON (VAR. VALIDUM (BAILEY) BREZH.) NAV  
NAMUNALARIDA OLIB BORILGAN FENOLOGIK KUZATUVLAR.****Dusiyev Baxrom Rajabovich****Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish instituti–tayanch doktoranti****E-mail:** [dusiyevbaxrom@gmail.com](mailto:dusiyevbaxrom@gmail.com) (+998)94204-09-01

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada 2023 yil Rossiya federatsiyasi seleksiyasiga mansub 3 ta va Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy-tadqiqot instituti (SPE va KITTI) Surxondaryo ilmiy-tajriba stansiyasi seleksiyasiga mansub 7 ta pomidorning shtambsimon nav va liniyalari xizmat qiladi. Shamsimon pomidorning transportbop, bo‘rtma nematodasiga chidamli yangi, (F<sub>1</sub>) duragaylarini olish va ularning morfobiologiyasi va fenologik kuzatuvlar olib borilganligi natijalar taxlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** Shtambsimon, (F<sub>1</sub>) duragay, Taramata-348, Sug‘diyona, SP-36/17, Chelnok, Surxon-142, kasseta

**Аннотация.** В данной статье представлены 3 сорта и линии томатов, относящиеся к селекции 2023 года Российской Федерации и 7, относящиеся к селекции Сурхандарьинской научно-исследовательской станции Научно-исследовательского института овощей, поликультуры и картофеля (НПП и КИТИ). Проанализированы результаты получения новых (F<sub>1</sub>) гибридов томата, транспортабельных и устойчивых к корневой нематодe, а также их морфобиологические и фенологические наблюдения.

**Ключевые слова:** Штамбимон, (F<sub>1</sub>) гибрид, Тарамата-348, Сугдияна, СП-36/17, Челнок, Сурхан-142, кассета.

**Abstract.** In this article, 3 varieties and lines of tomatoes belonging to the selection of 2023 of the Russian Federation and 7 belonging to the selection of the Surkhandarya Research Station of the Scientific Research Institute of Vegetables, Polycultures and Potatoes (SPE and KITTI) are presented. The results of obtaining new, (F<sub>1</sub>) hybrids of tomato that are transportable and resistant to root rot nematode and their morphobiology and phenological observations were analyzed.

**Keywords:** Shtambsimon, (F<sub>1</sub>) hybrid, Taramata-348, Sugdiyona, SP-36/17, Chelnok, Surkhan-142, cassette

**Kirish.** Pomidorning shtambsimon tur xili (*var. validum (Bailey) Brezh.*)ga poyasi tik yoki ko‘tarilgan va faqat meva og‘irligi ta‘sirida yotib qoluvchi navlar kiradi. O‘simlik bo‘yi juda kichik (karliksimon) dan o‘rtacha uzunlikkacha bo‘lib ham determinant ham indeterminate tipda bo‘lishi mumkin. Barg bandi kalta hamda barg yuzasi kuchli va o‘rtacha darajadagi burmalarga ega. Hamma o‘simliklari ildiz sistemasi bilan birgalikda, ayniqsa, rivojlanishning boshlang‘ich bosqichlarida kompakt tuzilishga ega bo‘lib, boshqa tur xillari bilan solishtirganda kuchsiz shoxlanadi va birinchi to‘pguldan pastda qo‘ltiq kurtaklar hosil qiladi.

Shtambsimon o‘simliklar bir qator foydali belgilarga ega bo‘lib, ular pomidorning oddiy tur xiliga mansub o‘simliklarga nisbatan ustunligini ta‘minlaydi. Shtambsimonlik belgisi bir qator fiziologik va morfologik belgilar kompleksi bilan bog‘liq. Shtambsimon navlar, odatda, isiqqa va qurg‘oqchilikka chidamli bo‘ladi. Bu ayniqsa, janubiy O‘zbekistonning issiq va quruq iqlim sharoitida muhim ahamiyatga ega.[5]

Shtambsimon navlarning barglari yuqori fotosintetik faollikka ega va oddiy tur xiliga mansub navlarga nisbatan ancha yuqori mahsuldorlikni ta'minlash imkoniga ega deb taxmin qilinadi. Ko'chatlik davrida (ertagi muddatda ekilganda) yaxshi o'sib olgan shtambsimon navlar yaxshi rivojlanadi va 100 t/ga va undan ko'proq hosil to'playdi.

Keyingi yillarda aholining yangi pomidorga ortib borayotgan talabini qondirish bir oz qiyinlashdi. Bundan tashqari dunyoda iqlimning keskin o'zgarib borayotganligi hisobiga yoz oylarida havo haroratining ortib borishi, nisbiy namlikning esa juda pasayib ketishi kuzatilmoqda [3].

Yuqorida sanab o'tilgan navlarning kamchiligi transportda tashishga yaroqsizligi va bo'rtma nemotodasi (*Meloidogyne* turkumi) ga chidamsizligi (Surxon 142 navidan tashqari) bo'lib, buning natijasida hosildorlikni 30% dan 100% gacha yo'qotishidir.

Hozirgi zamon qishloq xo'jaligida yetishtiriladigan navlar nafaqat serhosil, balki u amal davri davomida sodir bo'ladigan atrof muhit noqulayliklariga kompleks chidamli va intensiv texnologiyalarga moslashtirilgan bo'lishi kerak. Ko'p yillik tajribalar shuni ko'rsatadiki, hozirgi vaqtda mavjud navlar potensial hosildorligining 30–40% , eng yaxshi sharoitlar bo'lganda esa 50–60% idan foydalanilmokda, buning asosiy sababi esa navlarda ekologik chidamlilikni yetishmasligidir.[4]

**Tadqiqotni metodikasi va o'tkazish joyi:** Tadqiqotlar dala va laboratoriya sharoitida Sherobod tumani " Surxon-Sherobod bo'ston guzari, MCHJ qarashli fermer xo'jaligi maydonida, olib borildi.

#### **Tadqiqot uslublari.**

Методика полевого опыта [1; 350-б];

Методические указания по селекции сортов и гибридов томата для открытого и защищенного грунта [2; 52-б]; uslub va uslubiy ko'rsatmari asosida olib borildi.

**Tadqiqot natijalari.** O'simlikshunoslik ilmiy tadqiqot institutidan va Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy tadqiqot instituti Surxondaryo ilmiy tajriba stansiyasidan olingan 10 ta quyidagi pomidor nav va tizma namunalarining urug'lari ajratilib olindi. Tajribani olib borish uchun issiqxona ko'chatzorida pomidorning quyidagi istiqbolli nav namunalarining urug'lari 7 sm<sup>3</sup> o'lchamdagi kassetalariga ekildi. (07.02.2023 yil) 10 ta pomidor nav va tizma namunalarining urug'laridan ekib parvarishlangan ko'chatlar 22.03.2022 yil ochiq dalaga plyonka ostiga o'tkazib ekildi. 29.03.2023 yil yengil chopiq bilan ko'chatlar taglari yengil yumshatilgan bo'lsa 04-05.04.2023 yilda birinchi chopiq ishlari qilindi.

Jumladan: 01.06.2023 pomidor kuyasiga qarshi Altacor\*35 WG (50g) preparati bilan birinchi marta ishlov berilgan bo'lsa 15.06.2021 yani 10 kundan so'ng ikkinchi marta ishlov o'tkazildi. Kladosporiozga qarshi krizoksin+entolorak aralashmasi bilan ishlov berildi ikki kun o'tkazib BL-77 kuchli bargdan oziqlantirish o'tkazildi.

#### **1-jadval. O'rganilgan pomidor nav namunalarining ro'yxati, 2023.y.**

№	Nav namunalar nomi	Kelib chiqishi	Yaratilgan yili
1	2	3	4
<b>Shtambsimon nav namunalarini</b>			
1	Surxon 142	O'zbekiston	1994

№	Nav namunalar nomi	Kelib chiqishi	Yaratilgan yili
1	2	3	4
2	Do'stlik	O'zbekiston	2008
3	Taramata-1	O'zbekiston	2008
4	Otradniy	Rossiya	1984
5	Chelnok	Rossiya	1997
6	Utenok	Rossiya	1995
7	Volgogradskiy 5/95	Rossiya	1995
8	Sevara	O'zbekiston	2008
9	SP105 Marjona	O'zbekiston	2008
10	Taramata 348	O'zbekiston	2022

**2- jadval. Shtambsimon pomidor nav namunalari bo'yicha fenologik kuzatuvlar natijasi (2023.y.)**

№	Nav namunalari	Unib chiqishi		Gullashi		Pishishi	
		10%	75%	10%	75%	10%	75%
1	2	3	4	5	6	7	8
1	Surxon 142	19.02	22.02	22.04	26.04	05.06	08.06
2	Do'stlik	19.02	22.02	19.04	23.04	29.05	03.06
3	Taramata-1	20.02	22.02	28.04	30.04	08.06	10.06
4	Otradniy	23.02	27.02	24.04	27.04	01.06	04.06
5	Chelnok	22.02	26.02	20.04	24.04	25.05	30.05
6	Utenok	18.02	21.02	23.04	27.04	11.06	15.06
7	Volgogradskiy 5/95	20.02	24.02	25.04	29.04	07.06	11.06
8	Sevara	18.02	21.02	02.05	05.05	08.06	12.06
9	SP105 Marjona	24.02	28.02	02.05	06.05	11.06	15.06
10	Taramata 348	17.02	21.02	22.04	26.04	09.06	14.06

Amal davri davomida fenologik kuzatuvlar, urug'larni unib chiqishi, (10; 75%), pishishi (10; 75%), bo'lmachalarda ko'chat qalinligi xosildorlikni aniqlash, istiqbolli navlarni rasmga tushirish va mevalarning kimyoviy tarkibini aniqlash, mevalarning transportbopligini baholash kabi ishlar amalga oshirildi. Olingan ma'lumotlarga matematik ishlov berish Дюпехов [7; 350-6] uslubida bajarildi.

### 1-rasm. Do'stlik navi



**Xulosa** qilib aytganda pomidorning serhosil (geterozis samaradorligi 25-35 %), transportbop, muxim xo'jalik belgilariga (meva shakli yumaloq, yassi yumaloq, ovalsimon, qattiq, bandsiz uziladigan, meva vazni 100-150g) ega bo'lgan, bo'rtma nemotodasi va kladosporiozga chidamli nav, duragay fenologik kuzatuvlar natijasida chelnok ertachi hamda eng muhimi geterozis duragaylarini yaratish va ishlab chiqarishga joriy etish bugungi kunning dolzarb masaladir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Доспехов Б.А. Методика полевого опыта. – М.: Агропромиздат, 1985. - 350 с.
2. Методические указания по селекции сортов и гибридов томата для открытого и защищенного грунта. – М. – ВНИИССОК. 1986. – 52 с.
3. Nadjiyev. J. N Pomidor va baqlajonning transportbop, bo'rtma nematodalariga chidamli nav va F<sub>1</sub> duragaylar seleksiyasi. Qishloq xo'jaligi fanlari doktori dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent 2018. 57-59 b.
4. Nurmatov N.J. Ertapisharlikka va adaptive qobilyatga yo'naltirilgan pomidor (*L.esculentum* Mill.) seleksiyasi va yetishtirish texnologiyasi. q.h.f.d. .... dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent, 2020. -93-97 b.
5. To'raqulov J.Sh Shtamsimon va cherri tipidagi pomidor nav va duragaylari seleksiyasi uchun boshlang'ich manba yaratish. Falsafa doktori dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent 2023 . 69-73 bet